

COLCHICUM BUNGE TURKUMI AYRIM TURLARI INTRODUKSIYA SHAROITDA O'SISHI VA RIVOJLANISHI (COLCHICUM ROBUSTUM BUNGE (MERENDERA), COLCHICUM AUTUMNALE

Maxstaliyev Navro`zbek Solijon o`g`li
Izbosarov Matnazar Barrabekovich
(Toshkent Davlat Agrar Universiteti)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Colchicum Bunge turkumi ayrim turlarini Colchicum Robustum Bunge (Merendera), Colchicum autumnale introduksiya sharoitda o'sish va rivojlanishi, ildizi, tugunak piyozlarni shakllanishi, barglarni xosil bo'lishi va gullash jarayonlari o'rganildi.*

Kalit so'zlar: *Introduksiya, tugunakpiyoz, ildiz, barg, gul, urug', meva, alkaloidi, kolxisin, Colchicum, Bunge, Merendera, autumnale.*

Abstract: *In this article, the growth and development of certain species of colchicum bunge family, Robustum Bunge (Merendera), Colchicum autumnale, were studied under the conditions of introduction, the formation of roots, tuber bulbs, formation of leaves, and the process of flowering were studied.*

Keywords: *Introduction, onion, root, leaf, flower, seed, fruit, alkaloid, colchicine Colchicum, Bunge, Merendera, autumnale.*

KIRISH

Mamlakatimizda dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, mavjud resurs va imkoniyatlardan oqilona foydalanib, dorivor va ziravor o'simliklar yetishtiriladigan plantasiyalar tashkil etish va ularni qayta ishlash borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentinig 2022-yil 20-maydagi "Dorivor o'simliklar xom ashyo bazasidan samarali foydalanish, qayta ishlashni qo'llab-quvvatlash orqali qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-139-sonli Farmoni[1] hamda "Dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-251-sonli Qarori tasdiqlandi[2].

Mamlakatimizda shifobaxsh dorivor o'simliklar mahsulotlarini sanoat va tabobat uchun etishtirib beradigan maxsus ixtisoslashtirilgan xo'jaliklar yil sayin ko'payib bormoqda. Shuningdek, respublikamizda uchramaydigan, endilikda tabiatimizga moslashtirilayotgan yoki yer sharining boshqa floristik oblastlaridan introduksiya qilinayotgan va iqlimlashtirilayotgan dorivor o'simliklarni o'rganish sohasida ham olimlar tomonidan ko'pgina ishlar qilingan va bu boradagi izlanishlar davom ettirilmoqda.[3]

Shunday o'simliklardan Colchicum Bunge turkumi ayrim turlarini Colchicum Robustum Bunge (Merendera), Colchicum autumnale – Colchicaceae oilasiga mansub

o'simliklarni yetishtirishdan oldin o'simliklarda kechadigan jarayonlar o'sib rivojlanishini chuquroq o'rganish zarur hisoblanadi. Toshkent sharoitda o'simliklarni tugunak piyozlarni yer ostida rivojlanishidan tortib yer ustida kechadigan jarayonlari o'rganib chiqdik.

Colchicum Robustum Bunge (Merendera) tashqi tuzilish jihatdan chiroyli o'simlik hisoblanib, past xaroratga chidamli, ko'p yillik, erta bahorda gullab hamda vegetatsiya davomiyligi qisqa o'simlik hisoblanadi [4].


Colchicum autumnale L. (Kuzgi sarvinjon) kuzgi sarvinjon noodatiy shaklga ega o'simlik hisoblanadi. Boshqa aksariyat o'simliklar kuz fasli kelishi bilan vegetatsiyasini tugatib qish kelishiga tayyorgalik ko'rsa, ushbu o'simlik esa senatabrda-dekabr oyigacha gullash va yer ostki organlari shakllanish jarayonida bo'ladi [5].

TADQIQOT OBYEKTI VA METODOLOGIYASI

Tadqiqot obyekti Colchicaceae oilasiga mansub ko'p yillik *Colchicum Robustum Bunge (Merendera)* hamda *Colchicum autumnale L. (Kuzgi sarvinjon)* hisoblanadi.

Tajriba Toshkent davlat agrar universiteti qoshidagi Toshkent viloyati Qibray tumanida joylashgan "Qishloq xo'jaligida innovatsion ishlanmalar va maslahat markazi" DUK da o'rganilmoqda. O'simlikning biomorfologik xususiyatlari Cheripanov Serebryakov, O'simliklarni mavsumiy rivojlanishi Beydeman, Zaysev usullaridan foydalanildi. Bunda o'simlikning o'sishi, barglarni, ildiz, tugunakpiyozlarni paydo bo'lishi ko'payishi, rivojlanish, gullash kabi jarayonlar kuzatib borildi.

Tajriba uchun variantlarida introduksion chidamlilikni o'rganib maqbul variant tanlaniladi, bunda introduksion chidamlilikni aniqlashga asoslangan metod (Trulevich 1991, To'xtaev 2009) va o'simliklar reproduktiv strategiyalarini tahlil qilish metodi (Guseynova, 2011) dan foydalanilgan holda introduksion baholash ishlari olib boriladi.[6]



1-rasm Tadqiqot obyekti *Colchicum Robustum* va *Colchicum autumnale*

Toshkent davlat agrar universiteti qoshidagi Toshkent viloyati Qibray tumanida joylashgan "Qishloq xo'jaligida innovatsion ishlanmalar va maslahat markazi" DUK

Tadqiqot natijalar. Tajriba Toshkent davlat agrar universiteti qoshidagi Toshkent viloyati Qibray tumanida joylashgan “Qishloq xo’jaligida innovatsion ishlanmalar va maslahat markazi” DUK da o’sitirilib kelinayotgan *Colchicum Robustum Bunge* (Merendera) hamda *Colchicum autumnale L.* (Kuzgi sarvinjon) o’simliklarni o’sib rivojlanishi kuzatildi.

Kuzatuvlarimizni tuganakpiyozlarni o’sish va rivojlanishi hajmiga bog’liq holda Samarqand viloyati Kattaqo’rg’on tumani adirligidagi *Colchicum Robustum* turi fevral oyi o’rtalarida olib kelib tajriba maydonchasiga ekildi va vegetatsiyasi kuzatila boshlandi. Kuzatishlar natijasida o’simlik dastlab bizning tajriba maydonchamizda yaxshi o’sishni davom ettirdi. Vegetatsiya davri qisqa bo’lganligi sababli o’z vegetatsiya davrini may oyi oxiri tugatdi.

Kuzatuvlarimizni tuganak piyoz asosida ekilgan variantlarda olib bordik. Agrotexnik usullar kichik o’lchamdagi maydonda tajribalar qo’yish yo’li bilan aniqlandi. O’simliklarni ekish muddatlari uning tabiiy sharoiti, iqlim urug’ yoki o’sish ko’chatining katta-kichikligi, issiqqa yoki soyasevarligiga bog’liqdir.

Colchicum turkumi ayrim turlarini ekish muddatlariga to’xtaladigan bo’lsak *Colchicum Robustum* va *Colchicum Autumnale* turlari, asosan avgust oyining o’rtalarida piyozlaridan ekib o’stiriladi. Yoz, kuz va qish mavsumlarida piyozlar tinim davrini o’tab, bahorda o’sib chiqqa boshlaydi. Agar piyozlarni muddatdan erta yoki kechiktirib ekadigan bo’lsak o’zimiz xohlagandek natijaga erisha olmasligimiz mumkin. Shunday ekan, o’simlik ekish muddatlariniga e’tiborli bo’lish zarur.

O’simlikni vegetativ ko’paytirish uchun ekiladigan tuganak piyoz xajmini aniqlash maqsadida diametri turlicha bo’lgan 4 xil variantda, ya’ni o’rtacha diametri 6.4 (A), 5.6(B) va 4.6(C), 3.9(D) sm bo’lgan tuganak piyozlarda tajribalar qo’yildi va kuzatuvlar olib borildi.

Colchicum Robustum va *Colchicum autumnale* ning tuganak piyozlari: diametri diametri 6.4 (A), 5.6(V) va 4.6(S), 3.9 (D) sm. Tajribalar Barcha variantlarda tuplar oralig’i *Colchicum Robustum* va *Colchicum autumnale* 15 sm, tuganak piyozlarni ekish chuqurligi 20 sm qilib olindi. Qatorlarning uzunligi 1 metrdan bo’lib, bitta qatorda 8 donadan o’simlik tuganak piyozlari ekildi.

1-jadval.

Colchicum autumnale L. tuganak piyozining xajmi bo’yicha qo’yilgan variantlardagi ko’rsatgichlar.

Variantlar	Tuganak piyozlarning ekilgan vaqtdagi diametr, sm	Unib chiqqan gullar soni, dona	Gullash davrining davomiyligi, kun	Poyalar soni, dona	Poyadagi barglar soni, dona		O’simlikni bo’yi, sm		Tuganak piyozlarni vazni, gr	
					1-poy	2-poy	1-poy	2-poy	1-poy	2-poy
1	6.4	15,6	42	2	8.7	7.0	47.8	40.5	85.0	49.3
2	5.6	3.8	38	2	6.5	4.0	52.1	53.9	87.7	16.8

Colchicum turkum turlari ham (Colchicum robustum va Colchicum autumnale) o'sib rivojlanishi quyidagicha bo'ladi. Masalan, Colchicum Autumnale (Kuzgi sarvinjon) turini oladigan bo'lsa. Bu tur piyozlar yozda avgust oyida ekiladi va kelgusi yil bahordan o'sib rivojlana boshlaydi. O'simlik erta bahordan mart-aprel oylarida yer ustiga chiqadi. Yirik bargalar yoz kelgan sari sarg'ayib quriy boshladi va kuzda dastlab gul keyin esa barg chiqaradi. O'simlik uncha ko'p suv talab qilmaydi. Kuzatishlar davomida agrotexnika ishlari to'g'ri olib borildi, begona o'tlardan tozalandi. O'simlik iyun oyiga kelib yer ustki qismi quriganidan so'ng yer ostki qismidagi piyozlar kavlab olib yirik va mayda piyozlarga ajratildi. Shundan so'ng piyozlar ikki xil variantda yirik va mayda piyozlarga saralab qaytadan ekildi. Tajriba namunalari ustidan kuzatish ishlari davom ettirilmoqda.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentinig 2022-yil 20-maydagi "Dorivor o'simliklar xom ashyo bazasidan samarali foydalanish, qayta ishlashni qo'llab-quvvatlash orqali qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-139-sonli Farmoni.

2. Dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-251-sonli Qarori.

3. To'xtaev B. Yo. Ahmedov E.T. Qaysarov.V.T "Dorivor o'simliklar introduksiyasi" o'quv qo'llanma.

4. Ogolevets G.S. Ensiklopedicheskiy slovar lekarstvennykh, efirnomaslichnykh i yadovitykh rasteniy. – Moskva. Izd-vo.Selxozgiz, 1951. - 487 s.

5. Frankova L., Sibirova K. The role of the roots in the life strategy of Colchicum autumnale.

Biology. Bratislava, 2004.

6. Belolipov I.B., To'xtaev B. Yo., Qarshiboev H.Q. "O'simliklar introduksiyasi" fanidan ilmiy- tadqiqot ishlarini o'tkazishga oid metodik ko'rsatmalar.(to'ldirilgan 2-nashr).- Guliston,2015.-32b.